

Mavzu: **Alifbo**

Aa *Kometa – chang, muz
va toshlardan tashkil
topgan kosmik jism.*

kometa

LUG'AT



Kometa (dumli yulduz) – muz, chang, qotib qolgan gazlar va mayda tosh bo'laklaridan iborat osmon jismi. Ular odatda Quyosh atrofida juda cho'zilgan elliptik orbitalar bo'ylab harakatlanadi. Kometa Quyoshga yaqinlashgani sayin uning ichidagi muz va gazlar isiydi hamda eriy boshlaydi. Buning natijasida uning atrofida gaz va changdan iborat yorug' qobiq hamda Quyosh shamoli ta'sirida uzoqqa cho'zilib ketadigan yorqin dum hosil bo'ladi.



1-mashq. Ajratib ko'rsatilgan so'zlarni alifbo tartibida yozing.

Sayyora

Quyosh, oy, yulduz – osmon, Koinot, borliq, jahon.
Biz, farzandimiz – xizmatda, Yashar dunyo
deb olgan nom. Barcha xalq bo'lsa posbon,
tinch, omon.
Sayyora, Sayyoramiz – izzatda.
Besh qit'amiz jamuljam, Sayyora, deb olgan nom.

Qambar Ota



2-mashq. “Harflar adashdi” ta’limiy o‘yini.

IKTOB ATRAP LAMAQ MKTABA



3-mashq. Kometalarning nomlarini alifbo tartibida yozing.

Galleya, Enke, Vilda, Xiron, Mrkosa, Maristani, Mellish, Bruks, Daniel, Lavjoya, Bennet



4-mashq. Rasmlarning birinchi harflaridan foydalanib, yashiringan so‘zni toping.



- Har bir harfning alifbodagi tartib raqamini bir-biriga qo‘shib, yig‘indisini toping.



Tartib bilan berilgan harflar jamlanmasi **alifbo** deyiladi.

Aa	Bb	Dd	Ee	Ff	Gg	Hh	Ii	Jj	Kk
1	2	3	4	5	6	7	8	9	10

Ll	Mm	Nn	Oo	Pp	Qq	Rr	Ss	Tt	Uu
11	12	13	14	15	16	17	18	19	20

Vv	Xx	Yy	Zz	O‘o‘	G‘g‘	Shsh	Chch	ng	’ (tutuq belgisi)
21	22	23	24	25	26	27	28	29	30



5-mashq. Matnni o'qing. Savollarga javob bering.

Bir bor ekan, bir yo'q ekan, o'zbek tilining sehrli bir mamlakatida harflar yashagan ekan. Ularning soni 29 ta bo'lib, ular o'z bilganlaricha tartibsiz yashar, boshpanasi ham yo'q ekan. Oilada tartib bo'lmagach, u yoqdan bu yoqqa sarson-sargardon bo'lib yurishar ekan. Bunday hayot ularning joniga tegibdi va sho'rlik harflar g'amga botib, yig'lab yuborishibdi.

Ularning yig'isini sehrigar Alifbo eshitib qolibdi-da, shunday debdi:

– Aziz harflarim, sizlar birlashishingiz, uy-joy qurishingiz kerak, shunda o'zingizga mos ish ham topiladi.

Harflar dono sehrigarning gapiga quloq solib, o'zlariga shahar qurishibdi. Unga o'zlarining qutqaruvchisi sharafiga **Alifbo** deb nom berishibdi.

1. Alifbo nima?
2. O'zbek alifbosida nechta harf bor?
3. O'zbek alifbosidagi harflar qanday guruhlarga bo'linadi?



6-mashq. Berilgan alifbo tartibidagi harflar bilan boshlanadigan sayyoralarni nomlang. Ushbu so'zlar ishtirokida gaplar tuzing.



7-mashq. Alifbo tartib raqamidagi harflardan foydalanib, sinonim so'zlarni toping. Ular ishtirokida gaplar tuzing.

10 14 18 12 14 18

5 1 24 14

10 14 8 13 14 19

